



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 3

2026

SOMERSET MOEM HIKOYACHILIGINING ESTETIK XUSUSIYATLARI

Sheraliyeva Dildora Abduvaxob qizi

Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti, tayanch doktorant

Annotatsiya

Somerset Moem XX asr ingliz adabiyotining eng sermahsul va o'z uslubiga ega hikoyachisi sifatida jahon adabiyotida alohida o'rin tutadi. Mazkur ilmiy izlanishda yozuvchining hikoyachilik mahorati estetik nuqtai nazardan tahlil etiladi. Maqolada adib hikoyalarining poetik tuzilishi, syujet qurilishi, qahramonlar psixologiyasini ochishda qo'llaniladigan badiiy vositalar hamda yozuvchining o'ziga xos uslubiy xususiyatlari ko'rib chiqiladi. Moemning hikoyachilikdagi asosiy estetik tamoyillari - voqelikni xolisona tasvirlash, psixologik realizm, dramatik zarbalar orqali kulminatsiyaga erishish va ironiya - "Malla", "Chandiqli kishi", "Ruhoniy", "Nonushta" va "Chumoli bilan chigirtka" hikoyalari misolida izchil tahlil qilinadi. Bundan tashqari, yozuvchining sodda, aniq va lo'nda nasr uslubi uning estetik dasturining muhim qismi sifatida o'rganiladi. Tadqiqot Moem hikoya janridagi mahorati haqida J. Oruell, S. Hastings, J. Meyers, D. Makkarti, Ch. May kabi adabiyotshunoslarning fikrlarini o'rganib, yozuvchining ingliz hikoyachiligidagi yuksak ijodini belgilab berishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Moem hikoyachilik mahorati, estetik xususiyat, psixologik realizm, syujet, uslub, ironiya, xarakter, dramatic intensity.

ЭСТЕТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ МАСТЕРСТВА РАССКАЗА СОМЕРСЕТА МОЭМА

Шералиева Дилдора Абдувахоб кизи

Наманганский государственный институт иностранных языков имени Исхокхона Ибрата,
базовый докторант

Аннотация

Сомерсет Моэм занимает особое место в мировой литературе как один из наиболее плодотворных и самобытных мастеров рассказа в английской литературе XX века. В данной статье анализируется мастерство писателя с эстетической точки зрения. Рассматриваются поэтическая структура его рассказов, построение сюжета, художественные приёмы раскрытия психологии персонажей, а также своеобразие авторского стиля. Основные эстетические принципы Моэма в области рассказа - объективное изображение действительности, психологический реализм, достижение кульминации через драматические повороты и ирония - последовательно анализируются на материале рассказов "Рыжий", "Человек со шрамом", "Церковный служка", "Ленч" и "Муравей и стрекоза". Кроме того, простой, точный и лаконичный прозаический стиль писателя рассматривается как важная составляющая его эстетической программы. Исследование опирается на взгляды таких литературоведов, как Дж. Оруэлл, С. Хейстингс, Дж. Мейерс, Д. Маккарти, Ч. Мэй и способствует определению выдающегося вклада писателя в английскую новеллистику.

Ключевые слова: Мастерство Моэма в жанре рассказа, эстетические особенности, психологический реализм, сюжет, стиль, ирония, характер, драматизм.

AESTHETIC FEATURES OF SOMERSET MAUGHAM'S STORY WRITING MASTERY

Sheraliyeva Dildora Abduvaxob qizi

Namangan State Institute of Foreign Languages named after Is'hoqxon Ibrat,
Basic Doctoral Student

Abstract

Somerset Maugham claims a prominent position in world literature as one of the most prolific and distinctive short story writers of the 20th century English literature. This article analyzes the writer's storytelling mastery from an aesthetic perspective. The article examines the poetic structure of his stories, plot construction, artistic devices used to reveal the psychology of characters, as well as the writer's distinctive stylistic features. Maugham's principal aesthetic principles in storytelling - objective depiction of reality, psychological realism, achieving climax through dramatic turns, and irony - are consistently analyzed through the stories "Red", "The Man with the Scar", "The Verger", "The Luncheon", and "The Ant and the Grasshopper". Furthermore, the writer's simple, precise, and concise prose style is examined as an essential component of his aesthetic program. The study explores the views of literary scholars such as G. Orwell, S. Hastings, J. Meyers, D. MacCarthy, and Ch. May on Maugham's storytelling, contributing to a definition of the writer's outstanding achievement in English short fiction.

Keywords: Maugham's story writing mastery, aesthetic features, psychological realism, plot, style, irony, character, dramatism.

XX asr ingliz adabiyotida hikoya janrining rivojlanishiga ulkan hissa qo'shgan Somerset Moem o'zining boy ijodiy merosi bilan jahon adabiyotshunosligi diqqatini tortib kelmoqda. Yozuvchi umri davomida yuzdan ortiq hikoya yaratgan bo'lib, ularning har biri o'ziga xos syujet qurilishi, psixologik chuqurligi va noyob uslubiy xususiyatlari bilan ajralib turadi. Adib hikoyachilik san'atini mukammal egallagan yozuvchi sifatida Gi de Mopassan va Anton Chexov an'alarini davom ettirgan holda o'zining betakror badiiy olamini yaratdi. Uning hikoyalari soddaligi ortida chuqur falsafiy ma'no, qahramonlar xarakterini ochishda esa psixologik aniqlik bilan ajralib turadi. Shunga qaramay, o'zbek adabiyotshunosligida Moem hikoyachiligini estetik nuqtai nazardan maxsus o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar cheklangan bo'lib qolmoqda. Bu holat ushbu maqolaning dolzarbligini belgilab beradi. Tadqiqotning asosiy maqsadi Somerset Moem hikoyachiligining estetik xususiyatlarini - voqelikni xolisona tasvirlash, psixologik realizm, dramatik syujet qurilishi va ironiya - yozuvchining "Malla", "Chandiqli kishi", "Ruhoniy", "Nonushta" va "Chumoli bilan chigirtka" hikoyalari asosida ilmiy jihatdan tahlil qilishdan iborat. Moem hikoyachiligining estetik xususiyatlari o'zbek adabiyotshunosligida yetarlicha o'rganilmagan jihatlar sifatida ko'rib chiqiladi va yozuvchining hikoya janridagi mahoratini belgilovchi asosiy tamoyillar tizimli tarzda ochib beriladi. Ayniqsa, yozuvchi hikoyalarida voqelikni xolisona tasvirlash tamoyili, psixologik realizm, dramatik syujet qurilishi va ironiyaning o'zaro uyg'unligi yaxlit estetik tizim sifatida tahlil qilinadi. Bundan tashqari, hikoyanavisning o'z estetik dasturi - soddaga, aniq va lo'nda nasr uslubi - uning hikoyalarida qanday namoyon bo'lishi konkret matnlar tahlili orqali isbotlanadi. Ilmiy izlanishda tahliliy metod, poetik tahlil, struktural tahlil va germenevtik metod usullaridan foydalanildi. Tahliliy metod hikoyalar matnini chuqur o'rganishga, poetik tahlil badiiy vositalar va uslubiy xususiyatlarni aniqlashga, struktural tahlil hikoyalarning kompozitsion qurilishini ochib berishga, germenevtik metod esa matn osti qatlamlarini talqin qilishga xizmat qildi. Nazariy asos sifatida S. Hastings, J. Meyers, D. Makkarti va Ch. May kabi adabiyotshunoslarning Moem ijodiga bag'ishlangan ilmiy ishlari, shuningdek yozuvchining "The Summing Up" va "A Writer's Notebook" asarlarida bayon etilgan o'z estetik qarashlari asos qilib olindi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Somerset Moem hikoyachiligini estetik nuqtai nazardan o'rganish jahon

adabiyotshunosligida keng ko‘lamga ega. Yozuvchi ijodini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlar ikki asosiy yo‘nalishda olib borilgan: birinchisi - Moemning o‘z estetik qarashlari va ijodiy tamoyillari, ikkinchisi - tanqidchilar va adabiyotshunoslarning uning hikoyanavislik mahoratiga bergan baholari. Bu tadqiqot ham ana shu ikki yo‘nalish asosida qurilgan. Adib hikoyachiligini o‘rganishda uning o‘z estetik qarashlari muhim nazariy manba hisoblanadi. “The Summing Up” asarida Moem o‘zining uch asosiy uslubiy tamoyilini - aniqlik, soddalik va musiqiylikni - badiiy nasrning eng muhim fazilatlarini sifatida belgilab beradi. “A Writer’s Notebook” asarida esa yozuvchi o‘z kuzatishlari, qahramonlar eskizlari va ijodiy mulohazalarini qayd etgan. Buyuk ingliz yozuvchisi Jorj Oruell Moem ta’sirini ochiqchasiga e’tirof etib, uni “Mening uslubimga eng ko‘p ta’sir qilgan zamonaviy yozuvchi”, deb atagan[1]. Bu baho adibning hikoyajanridagi nafaqat o‘z davri, balki keyingi avlod yozuvchilari uchun ham muhim estetik maktab bo‘lib xizmat qilganini ko‘rsatadi. Ingliz adabiy tanqidchisi Dezmond Makkarti Moemni “Ingliz Mopassani” deb atagan holda uning hikoyachilik mahoratini yuqori baholagan. Makkarti yozuvchi haqida: “Eng yaxshi paytlarida u tirik yoki o‘lgan har qanday yozuvchi kabi hikoya aytadi” degan[2]. Bu baho Moem hikoyanavisligining jahon adabiyotidagi o‘rni yuksak ekanligini belgilab beradi. Taniqli ingliz adabiy tanqidchisi Seyril Konnoli Moemni “So‘nggi buyuk professional yozuvchi” deb atab, uning ravon va aniq uslubini alohida ta’riflagan[3]. Konnoli Moem hikoyalarining geografik va insoniy qamrovini ta’kidlab, yozuvchi o‘z o‘quvchilariga “Uzoq sharqdagi britaniyaliklar - hakamlar, plantatorlar, fuqarolik xizmatchilari va ularning xotinlari - qanday bo‘lganini aynan ko‘rsatdi” deb yozgan. Amerikalik detektiv janri ustasi Raymond Chandler Moem hikoyalarining syujet qurilishini yuksak baholab: “Uning syujetlari sovuq va o‘tkir, vaqt tuyg‘usi esa mutlaqo benuqson” deb baholagan. Bu ta’rif adib hikoya janridagi dramatik mahorat va aniqlikning mohiyatini lo‘nda qilib ifodalaydi. Jeffri Meyersning “Somerset Maugham: A Life” asarida yozuvchining hayot yo‘li, ijodiy evolyutsiyasi va hikoyachilik mahoratining shakllanishi biografik kontekstda keng yoritilgan[4].

Mazkur ilmiy izlanishda tahlil qilinuvchi besh hikoya - “Malla”, “Chandiqli kishi”, “Ruhoniy”, “Nonushta” va “Chumoli bilan chigirtka” - Moem hikoyanavisligining turli estetik tamoyillarini yorqin namoyon etuvchi asarlar sifatida tanlangan. Ulardan “Ruhoniy” va “Chumoli bilan chigirtka” hikoyalari adabiyotshunoslikda alohida o‘rganilgan bo‘lib, Charles May tomonidan tahrirlangan “Masterplots II: Short Story Series” asarida ironiya va paradoksning klassik namunalarini sifatida tahlil qilingan[5]. “Nonushta” hikoyasi esa ko‘plab adabiyot darsliklarida adib satirik ironiyasining yorqin namunasi sifatida tilga olinadi. “Malla” va “Chandiqli kishi” hikoyalari yozuvchi hikoyanavisligidagi psixologik chuqurlik, dramatik syujet qurilishi va sovuqqon finalning namunaviy asarlari sifatida adabiyotshunoslik tadqiqotlarida e’tirof etilgan. Shunday qilib, jahon adabiyotshunosligi Moem hikoya janrining asosiy badiiy xususiyatlarini - soddalik va aniq uslub, psixologik realizm, dramatik syujet qurilishi va ironiyani - yozuvchi ijodining muhim belgilari sifatida bir ovozdan tan oladi.

METODLAR

Ushbu tadqiqotda Somerset Moem hikoyachiligining estetik xususiyatlarini har tomonlama ochib berish maqsadida bir-birini to‘ldiruvchi to‘rt xil ilmiy tahlil usulidan kompleks tarzda foydalanildi. Birinchidan, tahliliy metod qo‘llanildi. Bu metod orqali tanlangan besh hikoya - “Malla”, “Chandiqli kishi”, “Ruhoniy”, “Nonushta” va “Chumoli bilan chigirtka” - matnlari chuqur va izchil o‘rganildi. Har bir hikoyaning mavzu, g‘oya, qahramon tipi va kompozitsion qurilishi alohida tahlil qilindi; yozuvchining estetik tamoyillari aniqlanib, ular orasidagi umumiy va o‘ziga xos jihatlar qiyosiy tarzda belgilandi. Tahliliy metod qo‘llanishida avvalo har bir hikoyaning mavzusi va g‘oyaviy yo‘nalishi aniqlanib, Moem hikoyachiligidagi takrorlanuvchi estetik tamoyillar belgilandi: “Malla”da yo‘qotilgan go‘zallik va taqdir mavzusi, “Chandiqli kishi”da mardlik va sevgining paradoks talqini, “Ruhoniy”da savodsizlik va muvaffaqiyatning ironik uyg‘unligi, “Nonushta”da insoniy xarakterning satirik tasviri, “Chumoli bilan chigirtka”da

axloqiy normalarning kulgili ag'darib tashlanishi. Shu asosda Moem hikoyachiligining yaxlit estetik tizimi sifatidagi mohiyati ochib berildi. Ikkinchidan, poetik tahlil usulidan foydalanildi. Bu usul hikoyalardagi badiiy vositalar - ironiya, paradoks, psixologik portret, dialog, syujet burilishi va ramziy detallarni aniqlash hamda ularning estetik vazifasini ochib berishga xizmat qildi. Poetik tahlil adib uslubining asosiy belgilarini - aniqlik, soddalik, dramatik zarbalar va sovuqqon hikoya ohangi - konkret matn misollarida ko'rsatishga imkon berdi. Ayniqsa, "Ruhoniy" va "Chumoli bilan chigirtka" hikoyalarida ironiya va paradoksning qurilishi, "Malla" hikoyasida lirik tasvirning badiiy roli va ramziy landshaft tasviri, "Nonushta"da satirik portretning poetik tuzilishi va muallif ovozining betaraflik niqobi ortida yashirinishi poetik tahlil usuli orqali o'rganildi. Uchinchidan, struktural tahlil usuli qo'llanildi. Bu usul hikoyalarning kompozitsion qurilishini - kirish, rivojlanish, kulminatsiya va final - o'rganishga, shuningdek yozuvchi hikoyalarida syujet qurilishining takrorlanuvchi namunalarini aniqlashga yordam berdi. Struktural tahlil orqali hikoyaning kirish qismida o'quvchi diqqatini tortuvchi detallar, rivojlanish qismida dramatik zo'riqishning asta-sekin kuchayishi va finalda kutilmagan burilish yoki sovuqqon yakun qonuniyatlari aniqlandi. Xususan, "Chandiqli kishi"da qatl sahnasining dramatik tuzilishi va kutilmagan ozod qilish finali, "Nonushta"da to'yib ovqatlanish sahnasining bosqichma-bosqich kuchayib borishi, "Ruhoniy"da savodsizlikning g'ayriodatiy g'alaba vositasiga aylanishi struktural tahlil orqali ko'rib chiqildi. To'rtinchidan, germevtik metod qo'llanildi. Germevtika - matnni talqin qilish, unda yashiringan ma'nolar qatlamlarini ochish va muallif niyati bilan matn o'rtasidagi munosabatni tushunish metodologiyasidir. Bu metod, ayniqsa, Moem hikoyalarida to'g'ridan-to'g'ri aytilmagan, lekin badiiy vositalar orqali anglatilgan estetik g'oyalarni talqin qilishda muhim rol o'ynadi. Masalan, "Chumoli bilan chigirtka"dagi axloqiy paradoksning germevtik talqini - mehnat va bekorchilik haqidagi an'anaviy qarashlarga Moemning ironik munosabati, "Chandiqli kishi"dagi qurbonlik va muhabbat ramzining matn osti qatlamlari - oshiqning sevgilisini o'ldirib uni qutqarish paradoksining falsafiy ma'nosi germevtik metod vositasida o'rganildi. Metodlar qismida to'rt usul izchil qo'llanildi. Tahliliy metod umumiy tayanch sifatida xizmat qildi; poetik tahlil badiiy vositalarni, struktural tahlil kompozitsion qurilishni, germevtik metod esa matn osti qatlamlarini ochib berishga yo'naltirildi. Takrorlanishlar bartaraf etilib, har bir metod o'ziga xos vazifasi bilan ajratib ko'rsatildi.

NATIJALAR

Ilmiy izlanish davomida Somerset Moem hikoya janridagi to'rtta asosiy estetik tamoyili - voqelikni xolisona tasvirlash, psixologik realizm, dramatik syujet qurilishi va ironiya - besh hikoya misolida izchil tahlil qilindi. Adib hikoyachiligining eng muhim estetik xususiyatlaridan biri - muallif ovozining betarafligidir, ya'ni voqelikni xolisona tasvirlash tamoyili. Yozuvchi qahramonlari va voqealariga nisbatan ochiq hukm chiqarmaydi, o'quvchini mustaqil xulosaga undaydi. "Nonushta" hikoyasida muallif-hikoyachi "Men hech qachon nonushtaga hech narsa yemayman" deb turib, uvildiriq, losos, sarsabil va shampun iste'mol qilayotgan ayolni bir marta ham qoralamaydi - biroq ayolning xatti-harakati o'zi-o'zini fosh etadi. "Chumoli bilan chigirtka"da ham xuddi shu usul qo'llaniladi: muallif-hikoyachi Tomning bekorchi hayotini tasvirlar ekan, uni qoralamaydi. "Chigirtka chumolidan ko'ra omadliroq chiqqandi" - bu bitta jumla betaraflikning eng yorqin ifodasi. Moem qahramonlarining ichki olami tashqi tasvirlar, xatti-harakatlar va dialoglar orqali ochiladi, bu asosan psixologik realizm bilan bog'liq. "Malla" hikoyasida Neylsonning iztirobi bevosita tasvirlanmaydi - oroldan ketolmasligi, Mallani ko'rmagani holda uni "Paolo Malatesta yoki Romeo kabi aniq tasavvur qilishi", Sallining ko'priikka termulishini yillar davomida kuzatib yurishi uning yashirin armonini psixologik aniqlik bilan ochib beradi. "Chandiqli kishi"da isyonchining buyukligi faqat uch xatti-harakatda namoyon bo'ladi: poker o'ynab vaqt o'tkazishi, qatl oldida osoyishta sigaret chekishi va xotinini o'ldirishi - bu uch detal qahramonning to'liq psixologik portretini chizadi. "Ruhoniy"da esa "yuzida

xijolatdan asar ham sezilmasdi” degan bitta jumla Albert Edvardning psixologik mustahkamligini to’liq ochib beradi. Moem hikoyalarining tarkibiy xususiyati - dramatik zo’riqishning asta-sekin kuchayishi va finalda kutilmagan burilish hamda tugash. “Chandiqli kishi”da isyonchining xotinini o’ldirishi va generalning uni ozod qilishi - sevgi va o’limning paradoksal uyg’unligi hikoyaga falsafiy chuqurlik bag’ishlaydi. “Ruhoniy”da savodsizlik axloqiy paradoksga aylanadi: aynan shu “kamchilik” Albert Edvardni boylikka olib keladi. “Chumoli bilan chigirtka”da bekorchi Tomning kutilmagan g’alabasi, “Malla”da esa Neylsonning o’ttiz yillik idealining bir lahzada parchalanishi - har bir hikoyada bu qurilish o’ziga xos, lekin bir xil mahorat bilan qo’llanilgan.

Moem hikoyachiligidagi ironiya ikki shaklda namoyon bo’ladi: vaziyat ironiyasi va muallif ovozi ironiyasi. “Ruhoniy” va “Chumoli bilan chigirtka”da vaziyat ironiyasi ustunlik qiladi: savodsizlik va bekorchilik an’anaviy ravishda kamchilik sanaladi, biroq aynan shu xususiyatlar qahramonlarni g’alabaga olib keladi. “Nonushta”da muallif ovozi ironiyasi namoyon bo’ladi: ayolning bir xil iborasi har safar yangi ironik ma’no kasb etadi. “Chandiqli kishi”da esa ironiya eng chuqur falsafiy shaklga ega - sevgi o’lim orqali ifodalanib, hikoyaga tragikomik tus beradi. Shunday qilib, Moem hikoyachiligining to’rtta estetik tamoyili o’zaro chambarchas bog’liq: betaraf hikoya uslubi psixologik realizmni kuchaytiradi, dramatik syujet qurilishi ironiyaning ta’sirini oshiradi, ironiya esa o’quvchini mustaqil xulosaga undaydi. Bularning uyg’unligi yozuvchi hikoya janridagi yaxlit estetik tizimini tashkil etadi.

MUHOKAMA

Tadqiqot natijasida aniqlangan to’rtta estetik tamoyil - voqelikni xolisona tasvirlash, psixologik realizm, dramatik syujet qurilishi va ironiya - Moem hikoyachiligini jahon adabiyotshunosligi tomonidan ilgari surilgan talablar bilan to’liq mos keladi. Ayniqsa, Moem ijodiga bag’ishlangan yirik tadqiqotlar orasida Selina Hestingsning “The Secret Lives of Somerset Maugham” nomli biografik asari alohida o’rin tutadi. Hestings yozuvchi hikoyalarining estetik xususiyatlarini: “Sodda uslub, mutlaq ishonchlilik, dramatismdagi zichlik va dialogdagi epchillik, hamda o’quvchini hayratda qoldiradigan syujet burilishiga ega”, deb ta’riflaydi [6]. Ushbu tadqiqot bu bahoni konkret matn tahlillari orqali tasdiqlaydi: “Nonushta”dagi betaraf hikoya uslubi Hestings ta’kidlagan “sodda uslub va mutlaq ishonchlilik”ning, “Chandiqli kishi” va “Ruhoniy”dagi dramatik finallar esa “o’quvchini hayratda qoldiradigan syujet burilishi”ning yorqin namunalari sifatida namoyon bo’ldi. Raymond Chandlerning Moem hikoyalarining syujetlari sovuq va o’tkir, vaqt tuyg’usi esa mutlaqo benuqson, degan bahosi ham ilmiy izlanish natijalarida o’z tasdig’ini topdi. “Chandiqli kishi”dagi qatl sahnasining minimal so’zlar bilan tasvirlangan dramatik zo’riqishi, “Ruhoniy”dagi syujetning paradoksal mantiqiy qurilishi - bularning barchasi adabiyotshunos ta’kidlagan “sovuq va o’tkir” syujet xususiyatining aniq ko’rinishlaridir. Hikoyanavisni “Ingliz Mopassani” deb atalishi ham Mopassan an’anasidagi kabi Moem hikoyalarida ham syujet iqtisodiyoti - minimal vositalar bilan maksimal ta’sirga erishish - asosiy estetik tamoyil sifatida namoyon bo’ladi. “Nonushta” hikoyasining barcha voqeasi bitta tushlik stoli atrofida kechishi, “Chandiqli kishi”ning barcha dramatik yukini bir necha sahna orqali ifodalashi - bu iqtisodiyotning yorqin namunalari. Moem o’zi “The Summing Up” asarida aniqlik, soddalik va musiqiylikni uslubning asosiy fazilatlarini sifatida belgilagan edi. Tadqiqot bu estetik dasturning hikoyalarda qanday amalga oshirilganini ko’rsatdi: “Ruhoniy”dagi dialoglarning aniq va qisqa qurilishi, “Malla”dagi landshaft tasvirining musiqiy ritmi, “Nonushta”dagi takroriy iboralarning satirik vazifasi - bularning barchasi Moemning o’z estetik dasturini izchil va mahorat bilan amalga oshirganini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, maqola adib hikoyachiligining o’zbek adabiyotshunosligida yetarlicha o’rganilmagan bir muhim jihatini ham aniqladi: yozuvchining estetik tamoyillari bir-biridan ajralgan holda emas, balki yaxlit tizim sifatida ishlaydi. Bu o’zaro bog’liqlik Moem hikoyachiligini boshqa yozuvchilardan ajratib turadigan asosiy belgi sifatida e’tirof etish mumkin.

XULOSA

Mazkur maqolada Somerset Moem hikoyachiligining estetik xususiyatlari “Malla”, “Chandiqli kishi”, “Ruhoniy”, “Nonushta” va “Chumoli bilan chigirtka” hikoyalari misolida tahliliy, poetik, struktural va germeneytik metodlar yordamida har tomonlama o‘rganildi. Izlanish davomida yozuvchining hikoyachilik mahoratini belgilovchi asosiy estetik tamoyillar tizimli tarzda ochib berildi. Izlanishlarimiz shuni ko‘rsatdiki, voqelikni xolisona tasvirlash tamoyili Moem hikoyachiligining asosiy estetik xususiyati sifatida namoyon bo‘lib, muallif ovozining betarafligi orqali o‘quvchini mustaqil xulosaga undaydi. Muallif qahramonlarini qoralamaydi yoki ulug‘lamaydi - ularning xatti-harakatlari o‘zi-o‘zini ifodalaydi. Psixologik realizm esa adib tomonidan adabiy xarakterlarning ichki olamini bevosita izohlash o‘rniga tashqi detallar, dialog va xatti-harakatlar orqali ochib berishning asosiy vositasi sifatida qo‘llaniladi. Bu usul orqali Moem minimal so‘zlar bilan qahramonning to‘liq psixologik portretini chizishga erishadi. Dramatik syujet qurilishi - zo‘riqishning asta-sekin kuchayishi va finalda kutilmagan burilish hamda tugash - yozuvchi hikoya janrining tarkibiy estetik xususiyati bo‘lib, barcha besh hikoyada o‘ziga xos tarzda, lekin bir xil mahorat bilan namoyon bo‘lgan. Ironiya esa - vaziyat ironiyasi va muallif ovozi ironiyasi shakllarida - yozuvchining axloqiy va falsafiy munosabatini ifodalashning asosiy badiiy vositasi bo‘lib xizmat qiladi va Moem hikoyalarining o‘quvchiga ta‘sir kuchini oshirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Shunday qilib, Moem hikoyachiligining to‘rtta estetik tamoyili - betaraf hikoya uslubi, psixologik realizm, dramatik syujet qurilishi va ironiya - yaxlit badiiy tizim sifatida bir-birini to‘ldirib, yozuvchining o‘ziga xos hikoyachilik olamini yaratadi. Bu tamoyillarning o‘zaro uyg‘unligi Moem hikoyachiligini XX asr jahon hikoyachiligining eng yuksak namunalaridan biri sifatida belgilab beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Orwell. G. Autobiographical Note - Twentieth Century Authors - New York.: Stanley J. Kunitz and H. Haycraft. New York: H.W. Wilson & Co., 1942.
2. MacCarthy. D. Somerset Maugham: The English Maupassant - Nash’s Pall Mall Magazine, Vol. 91, May 1933.
3. Connolly. C. Enemies of Promise - London.: Routledge & Kegan Paul, 1938.
4. Meyers. J. Somerset Maugham: A Life - New York.: Alfred A. Knopf, 2004.
5. May. C.E. Masterplots II: Short Story Series. Revised Edition - Pasadena.: Salem Press, 2004.
6. Hastings. S. The Secret Lives of Somerset Maugham - London.: John Murray, 2009.
7. Maugham. W.S. The Summing Up - London.: Heinemann, 1938.
8. Maugham. W.S. A Writer’s Notebook - London.: Heinemann, 1949.
9. Maugham W.S. The complete short stories - Great Britain.: Bookprint Limited by London and Crawley, 1967.
10. Maugham W.S. Sixty-five short stories - Great Britain.: William Clowes Limited, Beccles and London, 1988.